

# Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги



Мақтабгача  
таълим  
вазирлиги



Ўзбекистон Республикаси  
Олий ва ўрта махсус таълим  
вазирлиги

## МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ПЕДАГОГИК АҲАМИЯТИ халқаро илмий-амалий конференция

2020 йил 11-12 ноябрь  
Самарқанд, Ўзбекистон



## *PEDAGOGICAL IMPORTANCE OF SCIENTIFIC AND PRACTICAL INNOVATIONS IN THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL EDUCATION*

International scientific-practical conference

November 11-12, 2020  
Samarkand, Uzbekistan

Самарқанд-2020

iyundagi PQ–3031-son [qarori](#)

4. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish to'g'risidagi Konsepsiya 2019 13-fevral.

5. Normurodov A.N. Jismoniy tarbiya. Darslik. T.: 2011.

6. Usmonxo'jayev T.S. va boshq. 500 xil harakatli o'yinlar. Darslik. T.: O'qituvchi. 2005.

7. K.M.Mahkamjonov, M.Sh.Rasuleva va boshq. «Maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy va kengaytirilgan jismoniy tarbiyasi». Tuzuvchi-mualliflar: T.: «Ilm Ziyo» nash. 2006.

8. Лях В.И. Мой друг — физкультура. М., 2002.

9. Махансва М.Д. Здоровый ребенок. М., 2004.

10. Моргунова О.Н. Профилактика плоскостопия и нарушений осанки в ДОУ. Воронеж, 2005.

11. Пензулаева Л.И. Оздоровительная гимнастика для детей дошкольного возраста (3—7 лет). М., 2001.

## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA GIMNASTIKA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH

*Muxabbat Mirazimova II – bosqich magistranti JDPI*

### *Annotasiya*

*Mazkur maqolada maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotidagi bolalar jismoniy tarbiya jarayoni ya'ni gimnastika mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish b'yiucha amaliy tavsiyalar hamda maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotida gimnastika mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishning samarali usullari ochib berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *mashg'ulot, chiniqish, gigiyena, yurish, yugurish, rivojlanish, arqoncha.*

### *Annotation*

*In this article several practical suggestions on the organization of children's workout in the preschool education and sufficient methods of the organization of gymnastics classes are given.*

***Key words:*** *practices, being tempered, hygiene, walking, running, developing, a rope.*

### *Аннотация*

*В данной статье описана организация физического воспитания детей в специальном дошкольном образовании и эффективные методы организации и проведения занятий гимнастикой в специальной дошкольной организации.*

***Ключевые слова:*** *тренировка, упражнение, гигиена, ходьба, бег, развитие, веревка.*

O'sib kelayotgan yosh avlodni bilimli, aqlan sog'lom, jismonan barkamol, har tomonlama etuk inson qilib tarbiyalash hozirgi kunda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-sonli "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini

2030 – yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi, Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusi hamda 2019–2023 yillarda O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish Konsepsiyasi hamda 2018-yil 14 avgustdagi PQ-3907-sonli “Yoshlarni ma'naviy-ahloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorlari ayni kunda izchillik bilan hayotga tadbiriq etilib kelinayotganligi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida gimnastika mashg'ulotlarini tashkil etish bolaning oiladagi, maktabgacha ta'lim tashkilotidagi kundalik tartibini majburiy qismidir.

Bolaning jismoniy rivojlanishi uni har tomonlama uyg'un rivojlangan inson bo'lib o'sishida, jismonan baquvvat, chidamli bo'lishida muhim ahamiyatga ega. Bolaga jismoniy tarbiya berishning vazifa va vositalari birinchi marta N.K.Krupskaya tomonidan belgilab berilgan. N.K.Krupskaya shaxsning bir butunligi va uni rivojlanishida ma'lum maqsadga qaratilgan tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish, to'g'ri ovqatlanish, sog'lomlashtiruvchi, chiniqtiruvchi tadbirlar, jismoniy madaniyat, harakatli o'yinlar, madaniy – gigiyenik malakalarni tarbiyalash, bolani o'z vaqtida dam olishi, yaxshi uxlashi kabi vositalardan foydalanish zarurligini ko'rsatib berdi.<sup>13</sup>

Salomatlikni mustahkamlashdagi birinchi muhim qadam bu – ertalabki badantarbiya mashg'ulotlaridir. Ertalabki gimnastika mashg'ulotlari bosh miya po'slog'i qo'zg'oluvchanligiga, butun markaziy asab tizimi faolligini kuchaytirishga, ko'rish, eshitish, qaddi – qomatni to'g'ri tarbiyalashga, nafas olishni chuqurlashtirishga, qon aylanishini kuchaytirishga, modda almashishiga, bolalarda diqqatni, maqsadga intiluvchanlikni tarbiyalashga, aqliy faoliyatni oshishiga, emotsiya va quvonch tuyg'ularini uyg'otishga juda katta yordam beradi. Bolalarni jismoniy mashqlarni ochiq havoda yoki derazalari ochiq xonada suv muolajalari, (suv quyish, dush, artinish), quyosh nurida chiniqtirish, ochiq havoda sayr (piyoda, qayiqda, chanada, velosipedda) bilan o'tkazishlari sog'lomlashtiruvchi samara beradi: asab tizimining umumiy holati va funksional imkoniyatlarini yaxshilaydi, uni mustahkamlaydi hamda chiniqtiradi, qo'zg'alish va tormozlanish jarayonining muqobillashuviga yordam beradi, almashinish reaksiyalarini yaxshilaydi, shamollash va yuqumli kasalliklarga nisbatan immunitetini hosil qiladi, bolalarda tetiklik, yengillik, quvonch sezgilarini uyg'otadi.

Bolalar organizimini chiniqtirish maqsadida suv harorati asta – sekin pasaytirib boriladi. Bunda shifokor ko'rsatmasi asosida har bir bolaga individual yondashishga rioya qilinadi. Ertalabki gimnastika mashg'ulotlari chiniqish muolajalari bilan o'zaro aloqadorlikda bolaning xushchaqchaq kayfiyatini kun davomida saqlovchi va oshiruvchi muhim vazifalardan biridir. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari – har tomonlama sog'lomlashtiruvchi jarayoni hisoblanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarga mashg'ulotlarning foydasi, jismoniy mashqlarning ahamiyati va texnikasi, ularni o'tkazish metodikasi haqidagi harakatli o'yinlar, ertalabki gimnastika mashg'ulotlar va hakazolar haqidagi

<sup>13</sup> Yusupova P. “Maktabgacha tarbiya pedagogikasi”. O'quv qo'llanma – T.: “O'qituvchi” nash. 1993.– 38 – 40 b.

tushuncha va bilimlarni berish muhimdir. Ertalabki gimnastika mashg'ulotlarini o'tkazishda mashqlar tanlash eng muhim vazifalardan biridir. Ertalabki gimnastika jismoniy mashqlarini bolalar bilan avval o'rganilgan mashqlar ichidan oldindan tanlab olishni talab etadi. Tanlab olingan mashqlar har kuni foydalanish uchun kompleks holda tuziladi. Kompleks uchun mashqlarni tanlash organizimning hayot faoliyatini oshirishni ko'zda tutadi. Bunga asosiy mushak guruhlarini asta – sekin ishga jalb etish, ularni qaddi – qomatini to'g'ri tarbiyalash maqsadlarida rivojlantirish va mustahkamlash orqali erishiladi.

Muayyan tartibdagi joylashgan turli mushak guruhlarining aniq, to'g'ri faoliyatiga tortishni ko'zda tutuvchi mashqlar har bir kompleks mazmunini tashkil etadi. Bunda mashg'ulotlarining quyidagi izchilligi belgilanadi: 1) yelka bo'g'inlari, ko'krak qafasi harakatchanligini rivojlantirishga, umurtqa pog'onasini rostdashga xizmat qiluvchi mashqlar; 2) orqa mushagi va umurtqa pog'onasini egiluvchanligini rivojlantirish va mustahkamlashga mo'ljallangan, ichki organlarga massaj kabi ta'sir etuvchi, oyoq bo'g'imlarini rivojlantiruvchi, to'g'ri qaddi – qomatni shakllanishiga yordam beruvchi mashqlar; 3) qorin va oyoq mushaklarini rivojlantirishga mo'ljallangan mashqlar.

Kompleks uchun aniq mashqlarni tanlash maktabgacha ta'lim tashkilotlarining har bir yosh guruhi rejasi bilan muayyan bolalar imkoniyatlari va salomatligi holati, shuningdek ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda belgilanadi.

Ertalabki gimnastika mashg'ulotlari organizimning funksional holatiga rohat baxsh etadigan yurish va yengil yugurish yassi oyoqlikdan saqlanishni ko'zda tutuvchi uzoq davom etmaydigan mashqlar bilan boshlanadi. So'ngra bolalar umumrivojlantiruvchi mashqlarni bajarish uchun bir necha guruhga saflanadilar. So'ngra yugurish yoki sakrashdan asta – sekin avval intensiv, keyin joyida turib yurishga o'tish va to'xtash bilan tugallanadigan mashqlar bajariladi. Ertalabki gimnastika mashg'ulotlari jarayonida barcha asosiy mushak guruhlarini ishga tushadi va butun organizimni faoliyat holatiga keltiradi. Yugurish va sakrash vaqtida juda katta jismoniy yuklamadan so'ng uning asta – sekin pasayishi yurish vaqtida yuz beradi va to'xtash chog'iga kelib, organizim holati avvalgi shakliga qaytadi.

Jizzax shahar Maktabgacha ta'lim bo'limi tasarrufidagi 21 – sonli nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotining III – o'rta guruh (4 – 5 yosh) tarbiyalanuvchilari bilan bir oy davomida ertalabki gimnastika mashg'ulotlarini olib bordik va shularni kuzatdik:

III – o'rta guruh (4 – 5 yosh) tarbiyalanuvchilari 16 nafarni tashkil etib, shulardan 3 nafari aqliy rivojlanishida nuqsoni bor, 3 nafari eshitish qobiliyatida nusoni bor va qolgan 10 nafari nutqida nuqsoni bor tarbiyalanuvchilar hisoblanadi. Manashu 16 nafar tarbiyalanuvchilar bilan 30 kun davomida ertalabki gimnastika mashg'ulotlari olib borilib kuzatilganda: birinchi o'n kunlikdagi mashg'ulotlar jarayonida 3 nafar aqliy rivojlanishida nuqsoni bor tarbiyalanuvchilar mashg'ulotdagi saflanish mashqlarida umuman ishtirok etmadi, tartib bilan saflangan safdan chiqib ketib boshqa harakatlarni bajarishdi; 3 nafar eshitish qobiliyatida nusoni bor tarbiyalanuvchilar saf mashqlarida qatnashdilar, ammo berilgan topshiriqlarni boshqa tarbiyalanuvchilarga nisbatan kechroq betartib

bajarishdi; qolgan 10 nafar nutqida nuqsoni bor tarbiyalanuvchilar esa saf mashqlarini to'g'ri bajardilar ammo sanash jarayonida (1, 2, 3, 4) hammalari birgalikda ayta olishmadilar va talaffuzda birov oldin, boshqasi keyin aytishdilar.

Mashg'ulotlar jarayonining ikkinchi o'n kunlikdagi natijalar: 3 nafar aqliy rivojlanishida nuqsoni bor tarbiyalanuvchilar mashg'ulotdagi saflanish mashqlarida safda boshqa tarbiyalanuvchilar qatorida turdilar ammo qo'l va oyoq harakatlaridagi mashqlarini bajara olishmadi; 3 nafar eshitish qobiliyatida nuqsoni bor tarbiyalanuvchilar saf mashqlarida qatnashdilar, berilgan topshiriqlarni boshqa tarbiyalanuvchilar bilan birgalikda bajarishdilar, ammo qo'l va oyoq harakatlarida tartib bilan bajarishmadi; qolgan 10 nafar nutqida nuqsoni bor tarbiyalanuvchilar esa saf mashqlarini, sanash jarayonidagi (1, 2, 3, 4) sonlarni hammalari birgalikda ayta olishdilar va qo'l va oyoq harakatlarida birov oldin, boshqasi keyin bajarishdilar.

Mashg'ulotlar jarayonining uchinchi o'n kunlikdagi erishilgan natijalar: 3 nafar aqliy rivojlanishida nuqsoni bor tarbiyalanuvchilar mashg'ulotdagi saflanish mashqlarida safda boshqa tarbiyalanuvchilar qatorida turdilar, qo'l va oyoq harakatlaridagi mashqlarini bajara olishdilar; 3 nafar eshitish qobiliyatida nuqsoni bor tarbiyalanuvchilar esa saf mashqlarida to'g'ri qatnashdilar, berilgan topshiriqlarni boshqa tarbiyalanuvchilarning qo'l va oyoqlari xatti – harakatlariga qarab, kuzatib, pirovard natijada ular bilan birgalikda to'g'ri bajarishdilar; qolgan 10 nafar nutqida nuqsoni bor tarbiyalanuvchilar esa saf mashqlarini, sanash jarayonidagi (1, 2, 3, 4) sonlarni hammalari birgalikda ayta olishdilar, qo'l va oyoqlari xatti – harakatlarini birgalikda to'g'ri bajardilar. Ushbu guruh tarbiyalanuvchilarining qo'l va oyoqlari xatti – harakatlarida ozroq bo'lsada bir xillik bo'lmaganligi bilan ammo u harakatlar ushbu maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini qobiliyatlari oldida hato hisoblanmaydi. Ushbu guruh tarbiyalanuvchilarini bunday natijalariga ko'proq rag'batlantirish orqali erishdik.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida gimnastika mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish natijasida maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari oyoq uchida, tovonida, oyoq kaftlarining yon tomoni bilan va tizzalarini yuqori ko'tarib yuradi, arqon ustida muvozanat saqlab yuradi, past to'siqlar ustidan sakrab o'tadi, arqonda sakrashga harakat qiladi, gimnastika skameykasi ustida qo'li bilan tortilib qornida suriladi, gimnastika narvonida harakatlanadi, samokatda uchadi, qanday qilib gavdani to'g'ri tutish kerakligini tushuntirib bera oladilar.

Har bir sog'lom, yetuk, barkamol va har tomonlama rivojlangan shaxs quyidagi jismoniy tarbiya tamoyillariga amal qilish lozim:

- jismoniy tarbiyaning biron bir maqsadga yo'naltirilganligi;
- jismoniy tarbiyada demokratik g'oyalarning ustunligi;
- jismoniy tarbiyada milliy qadriyatlarning ustunligi;
- jismoniy tarbiyani mehnat bilan bog'lash;
- jismoniy tarbiyaning ijtimoiy hayot bilan birga olib borish.

Xulosa qilib aytganda bolalar gimnastikasida va sportning barcha sohalaridagi o'rni, salohiyati hamda nufuzi juda kengdir. Ularni ilmiy jihatdan his etish, ko'p qirrali izlanish jarayonlarini rivojlantirishda yosh, iqtidorli mutaxassislarni ko'paytirish lozim. Eng muhimi esa, hozirgi zamonaviy multimediyaga

texnologiyalari, ommaviy axborot vositalari, sport musobaqalari jarayonida badantariya va sport mashqlarining sog'lomlashtiruvchi mohiyatlari hamda salohiyatlarini bolalar o'rtasida keng targ'ibot qilish zurrur. Jismoniy tarbiya – sog'lomlashtirish jarayonidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2018 yil 9 iyul, 27-son, 558-modda.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
3. X.Tulenova, P.Xo'jayev, M.Xo'jayeva, D.Abdullayev. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi (2-qism). O'quv qo'llanma – T., "Iqtisod – moliya". 2012. – 60 – 61 b.
4. P.Yusupova. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. O'quv qo'llanma – T., "O'qituvchi". 1993. – 38 – 40 b.
5. Sh.Shodmonova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. O'quv – metodik qo'llanma – T., "Fan va texnologiya". 2008. – 42 – 43 b.

### **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA 6-7 YOSHLI BOLALARNING EGILUVCHANLIK SIFATINI RIVOJLANTIRISH USULLARI**

*O'zbekiston Respublikasi, Samarqand shahar  
Ziyatov Muhammad Namazovich  
Samarqanda davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi  
Tojiyev Ulug'bek Muzaffar o'g'li*

#### **Annotatsiya**

*Bugungi kunda ta'lim sohasini modernizatsiya qilish yuqori aqliy, jismoniy va ijtimoiy faollikga ega bo'lgan shaxsning uyg'un rivojlanishini ta'minlash muammosini hal qilish bilan boshlanadi. Ushbu muammoni hal qilishda eng muhim vosita kuch, chaqqonlik, egiluvchanlik, tezkorlik, chidamlilikni o'z ichiga olgan jismoniy sifatlarni tarbiyalashdan iboratdir.*

***Kalit so'zlar:** jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, mashq, egiluvchanlik, o'yin, statik, maktabgacha ta'lim tashkiloti, 6-7 yoshli maktabgacha yoshdagi bolalar.*

#### **Annotation**

*Today, the modernization of education begins with solving the problem of ensuring the harmonious development of a person with high mental, physical and social activity. The most important tool in solving this problem is to cultivate physical qualities, including strength, agility, flexibility, agility, endurance.*

***Keywords:** physical education, exercise, flexibility, play, static, preschool organization, preschool children 6-7 years.*

#### **Аннотация**

*Сегодня модернизация образования начинается с решения проблемы обеспечения гармоничного развития человека с высокой умственной, физической и социальной активностью. Самым важным инструментом в*

<b>Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida gimnastika mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish</b>	<b>154</b>
<i>M.Mirazimova</i>	
<b>Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 6-7 yoshli bolalarning egiluvchanlik sifatini rivojlantirish usullari</b>	<b>158</b>
<i>M.N.Ziyatov, U.M.Tojiyev</i>	
<b>Application of innovative methods in the development of physical attitudes in children through the organization of gymnastics in preschool educational organizations.</b>	<b>162</b>
<i>D.Nazarova</i>	
<b>Ertalabki gimnastikani tashkil etish orqali bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishda innovatsion metodlarni bosqichma – bosqich qo'llash</b>	<b>165</b>
<i>D.Nazarova, R.U. Abdualimov, Raxmonova D.F</i>	
<b>Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xodimlarining bolalar bilan jismoniy tarbiya ishlarini tashkil etish metodikasi</b>	<b>170</b>
<i>N.T.Jomurodova</i>	
<b>Баркамол авлодни тарбиялашда экосаёхатлардан фойдаланиш</b>	<b>174</b>
<i>Д.А.Каримов, Н.Х,Шомирзаева</i>	
<b>Мактабгача таълим 6-7 ёшдаги болаларни БЎСМ спорт-соғломлаштириш босқичига селекциялаш</b>	<b>177</b>
<i>Д.А.Каримов, Х.А.Мелиев, Ф. Холиқов.</i>	
<b>Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishning o'ziga xos yo'llari</b>	<b>180</b>
<i>I.R.Turakulov, F.M.Turakulova, A.B.Tojiyeva</i>	
<b>Bo'lajak tarbiyachilarda sog'lom turmush madaniyatini shakllantirishning mazmuni, shakl va metodlari</b>	<b>183</b>
<i>X.B.Rahmonqulova, D.Sindorova</i>	
<b>Maktabgacha ta'limda jismoniy tarbiya metodikasida tadqiqot metodlari</b>	<b>187</b>
<i>M.Vozorova, A.Shodiyev</i>	
<b>Мактабгача ёшдаги болаларда жисмоний сифатларни тарбиялашнинг ўзига хос хусусиятлари</b>	<b>190</b>
<i>А.АЖўраев</i>	
<b>Maktabgacha yoshdagi bolalarning chaqqonlik jismoniy sifatini tarbiyalashda milliy va harakatli o'yinlarning o'rni</b>	<b>197</b>
<i>N.S.Kurbanova, N.Ergashaliyeva</i>	
<b>Развитие детского творчества на занятиях аппликации в дошкольном учреждении</b>	<b>200</b>
<i>М.Д.Рузиева, У.У.Хусейнова</i>	
<b>Саҳналаштириш фаолияти орқали болаларга бадий таълим бериш ва уларнинг эстетик қобилиятларини ривожлантириш</b>	<b>204</b>
<i>Г.И. Хасанова</i>	
<b>Илк ёш босқичида нарса ва буюмлар билан ҳаракатларнинг мазмуни</b>	<b>206</b>
<i>Н.К.Даминова</i>	
<b>Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirishda algoritmik ko'nikmalarni rivojlantirish aspektlari</b>	<b>212</b>
<i>Prof.R.D.Shodiyev, J.A.Kadirov</i>	
<b>Maktabgacha yoshdagi bolalarda algoritmik ko'nikmalarni shakllantirish muammosining dolzarb holati va yechimlari</b>	<b>216</b>
<i>Prof.R.D.Shodiyev, J.A.Kadirov</i>	
<b>Болалардаги илк математик тасаввурларни шакллантиришда оила ва мактабгача таълимнинг ҳамкорлиги</b>	<b>220</b>
<i>Э.М.Мардонов, Ш.Хайитмуродов, Бахтиёрова М.Б</i>	